



**O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MASALALARI”
ILMIY-NAZARIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

2022-YIL 16-MART



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari

Toshkent – 2022

“Tilshunoslikning dolzarb masalalari” Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov. – Toshkent, 2022. – 412 b.

Mas’ul muharrir:

Sh. Sirojiddinov

filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

Z. Abdirashidov – ilmiy va innovatsiya ishlari bo’yicha prorektor

H.Dadaboyev – filologiya fanlari doktori, professor

B.Abdushukurov – filologiya fanlari doktori, professor

Z.Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor

M.Qurbonova – filologiya fanlari doktori, dotsent

D.Jumashev – katta o’qituvchi

S.Bozorova – katta o’qituvchi

D.Muhammadiyeva – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (v.b.)

G.Komilova – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

K.Rixsiyeva – o’qituvchi

S.Abduraxmonova – o’qituvchi

Ushbu ilmiy maqolalar to’plam O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 7 -martdagi 101-F-son farmoyishi bilan tasdiqlangan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida tashkil qilingan **“Tilshunoslikning dolzarb masalalari”** mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallarini o’z ichiga oladi.

Maqolalar o’zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, turkologiya, shevashunoslik, lug’atshunoslik, o’zbek tilshunosligidagi zamonaviy yo’nalishlar masalalariga bag’ishlangan. Maqolalarda o’zbek tilining tarixiy ildizlarini yoritish, mumtoz manbalardagi tilshunoslikka doir qarashlarni o’rganish, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvopoetika, lingvofolkloristika, lingvodidaktika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi zamonaviy yo’nalishlarda integrativ yondashuv asosida tadqiqotlar olib borish, til nazariyasi va amaliy tilshunoslik, tarjimashunoslik muammolarini tahlil qilish o’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Mazkur to’plam tilshunoslikka doir masalalarni o’zbek tili tarixi va bugungi taraqqiyotini uyg’unlikda hamda integratsiya asosida tadqiq qilishga yo’naltiradi.

Mazkur to’plam professor-o’qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, magistrantlar hamda barcha qiziquvchilarga mo’ljallangan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2022-yil 31-martdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (8-sonli bayonnoma).

HAYDAR XORAZMIYNING “GULSHAN UL-ASROR” MASNAVIYSIDA MAQOLLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Tashmatova N.,
ToshDO‘AU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan mumtoz adabiyotimiz yetuk namoyondalaridan Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida ifodalangan maqollar tasnif va tahlil etilgan. Mumtoz she’riyatimizdagi masnaviy, g‘azal, fard singari bir qancha lirik janrlarda unumli ifodalaniladigan maqollardan foydalanish mahoratini tahlil etishga harakat qilingan. Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida maqollar fikrning o‘tkir va ta’sirchan, sodda va ravon ifodalanishini ta’minlashga xizmat qilganligini misollar orqali ko‘rib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *lirika, maqol, irsoli masal, masnaviy, bayt, alliteratsiya, assonans, tovush, metafora.*

XIV–XV asrlarda yaratilgan sermahsul asarlarning o‘zbek adabiyoti xazinasini boyitish bilan bir qatorda, o‘zbek adabiy tili taraqqiyoti uchun ham munosib xizmat qilib kelayotganligini alohida qayd etish joiz. Zero, mumtoz adabiyot namoyondalari o‘z hayoti davomida o‘zbek tilning keng imkoniyatlarini ko‘rsatish, uni yanada sayqallab, kelajak avlodga to‘la-to‘kisligicha yetkazib berish uchun tinmay mehnat qilishganligi barchaga ayon. Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysi ham mumtoz adabiyotimizning nodir durdonalaridan bo‘lib, yuksak badiiy mahorat namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Xalq maqollari milliy til imkoniyatlarini va xususiyatlarini ko‘rsatish bo‘yicha milliy adabiyotdan keyingi o‘rinda turadi¹. I.Melchinko xalq milliy paremiologik fondini tadqiq qilish uchun uning tarixiy taraqqiyot jarayonini o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi². Ushbu jarayonda insonning insonga bo‘lgan munosabatini aks ettirgan so‘zlar qatlami jamiyatdagi dunyoqarash, o‘zaro munosabatlar va lingvokulturologik, pragmatik vaziyatni aks ettirish nuqtai nazaridan muhimdir³. Dastavval, til doirasida ushbu tushunchani ifoda etishning ikki asosiy usuli: to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’no ifodalash va ko‘chma ma’noli so‘zlar orqali fikr ifodalash usullarini keltirib o‘tish lozim⁴. O‘zbek xalq maqollari mazmun jihatdan rang-barangdir. Maqollar har bir ijodkor nutqiga badiiy sayqal beradi. Badiiy asar tilini boyitish, emotsionalekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniladi⁵. She’riy nutqda qo‘llangan maqollar so‘zga badiiy jilo bag‘ishlaydi, uning ta’sir

¹ Мажидова Р.У. Антропоцентрический аспект пословиц русского и узбекского языка // Нутк лингвистикаси.-Самарқанд, 2006. 373-бет.

² Гурская С.Л. Имена существительные общего рода, характеризующие человека и ярославских говорах: Автореф. Дисс. ...канд. Филол. Наук.-Ярославль, 2010. 61-бет.

³ Мирсанов.Ф. Инглиз ва ўзбек тилларида юриш ҳаракат феълларининг акционал ва акцентуал хусусиятлари: Филол. фан. Номз. ...диссер. автореф. –Тошкент, 2009. 71-бет.

⁴ Филимонова Н.В. Фраземы, номинирующие человекам по чертам характера, в русском и немецком языках: структурный и семантический: дисс. ... канд. Филол. Наук.-Челябинск. 2011.-С.114.

⁵Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, 2006. 40-бет.

kuchini oshiradi. Maqollar matnning badiiy xususiyatlarini ta'minlashda, ifodada nutqiy ta'sirchanlikka erishishda alohida ahamiyatga ega. Maqollar inson yashab turgan jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarz, madaniy munosabatlar bilan bog'liq semantikani namayon etishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada mumtoz she'riyatimizdagi masnaviy, g'azal, fard singari bir qancha lirik janrlarda maqollardan foydalanish mahoratini tahlil etishga harakat qilamiz. Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" masnaviysida maqollar fikrning o'tkir va ta'sirchan, sodda va ravon ifodalanishini ta'minlashga xizmat qilganini aniq misollar orqali ko'rib o'tamiz.

Ma'lumki, she'riy nutqda maqollardan foydalanish mumtoz adabiyot nazariyasiga doir manbalarda irsoli masal san'ati deb nomlanadi. "Irsoli masal gapda yoki she'rda maqol, matal va hikmatli so'zlarni muayyan maqsadda tamsil yo'li bilan ishlatish san'atidir"¹. Haydar Xorazmiy lirikasida irsoli masal baytda ifoda etilgan fikrni maqol bilan mazmunan qiyoslash uchun keltirilgan. Shoir lirikasida maqollar baytning birinchi misrasida ham, ikkinchi misrasida ham keltirilib, mazmun va shaklning o'zaro bog'liqligini kuchaytiradi. Baytning har bir misrasi o'zaro qiyos, o'xshatish yoki sabab-natija munosabatlarini ifodalaydi. Masalan,

Egri ozar, to'g'ri o'zar, ey falon,

Tuzluk et, Tengrini ko'r dar miyon! (10B-sahifa,8-misra)

Ushbu baytda kektirilgan maqolda tovushdoshlik(alliteratsiya, assonans)dan unumli fodalanilgan, maqolda ifodalangan "R", "Z", "G", "G" kabi undoshlar alliteratsiya-undosh tovushlar takrori va uyg'unligini, "O", "O'" tovushlari esa assonans- unli tovushlar takrori va o'xshashligini ko'rsatadi va baytda ushbu maqolning keltirilishi adibning so'zlardan mahorat bilan unumli foydalanishidan dalolat beradi. Maqolda qarshilantirish yani tazod san'atinung mavjudligi, "egri" va "to'g'ri", "ozar" va "o'zar" so'zlarining ohangdoshligi, qofiyadoshligi baytning qimmatini oshirish barobarida, Haydar Xorazmiyning so'z tanlash mahoratini ham ochib beradi.

Maqollar lisoniy ongda muayyan tajriba, bilim, ko'nikma asosida shakllangan murakkab til birliklari hisoblanadi. Maqollarning mazmun- mundariyasi aksariyat hollarda ko'chma ma'noga asoslangan bo'lib, mental xususiyatlar, madaniy munosabatlarni ifodalash imkoniyati leksemaga nisbatan bir muncha keng bo'ladi. Majozlar vositasida ishora qilish – fikrning ta'sirchanligini oshirish, inson tasavvurida obrazli tafakkur namunasini hosil qilish, mubolag'a qilishdan iborat. Maqollarning real, hayotiy asosga ega bo'lmaganlari tushunchani mubolag'a tarzda ko'rsatishda faol qo'llaniladi. Maqollar orqali tushuncha ifodalashda lug'aviy ma'no, baho semasi, madaniy sema ishtirok etadi. Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" masnaviysida ham bu holatdan unumli fodalanilgan:

Аппатек эт базл кейин-илгари,

Теша бикин йўнма ўз-ўзунг сари! (10B-sahifa, 9-misra)

Арпа екиб буг'дoy о'urman теган,

Ко'рмадук оshlug'chini буг'дoy yegan. . (12B-sahifa,1-misra)

¹ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент, 2014. 47-бет.

Kimki bir eksa, evazi ming topor,
Borcha ma'oyibni saxovat yopor. (14B-sahifa,2-misra)

Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror" masnaviysida irsoli masal san'atini qo'llar ekan, birinchidan, fikrning xalqona uslubda ifoda etilishiga erishadi, ikkinchidan, so'zning ta'sir kuchini oshiradi, uchinchidan, badiiyat yuksak bo'lishini ta'minlaydi. Masnaviy baytlarida maqollarning keltirilishi misralardagi fikrni tasdiqlash, ifodaning emotsionallagini oshirish uchun san'atkorona qo'llangan. Bu esa o'z navbatida badiiy asar tilini boyitish uchun xizmat qilgan.

Adib maqollarda ifodalangan metafora-ko'chim(istiora)lardan ham unumli foydalangan. Bunda xalq maqolini kengroq ifodalab, keyingi misradagi mazmunga tashbeh etish asosida ijodiy niyatini aniqroq ochish maqsadi ko'zlangan:

Hazm qilo bilmasa, ko'b emasun,
Kuch bila holvani achiq demasun! (5B-sahifa,4-misra)
Oshin ichib o'tini so'ndirmangiz,
Sufra boshidin iyosin surmangiz!? (9B-sahifa, 9-misra)

O'zbek xalqi tarixida maqollar inson faoliyati, turmush tarzi bilan bog'liq semantikani namoyon etadi. Maqollarda ifodalangan tugal semantika muntazam ravishda kuzatuvlar va ko'p yillik tajribaga asoslanadi. Shu bois bu mazmun asrlar osha haqiqat ko'rinishida namoyon bo'ladi. Maqollar semantikasida tajriba asosidagi xulosa, hukm, baho semasi, madaniy sema aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, Haydar Xorazmiy ijodi bamisoli bir ummon bo'lib, undagi har bir so'z, ifoda vositasi bir durga o'xshaydi. Bu ummondan bu kabi dur va marvaridlarni ajratib olish va uni xalqqa taqdim etish, ularning badiiy jilo hamda turlicha tovlanishlarini ko'rsatib berish tadqiqotchilarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хайдар Хоразмий. "Гулшан ул-асроп" (Маҳзан ул-асроп) қўлёзмаси. ЎзРФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи. № 37.
2. Мажидова Р.У. Антропоцентрический аспект пословиц русского и узбекского языка // Нутқ лингвистикаси. – Самарқанд, 2006.
3. Гурская С.Л. Имена существительные общего рода, характеризующие человека и ярославских говорях: Автореф. Дисс. ...канд. Филол. Наук. – Ярославль, 2010.
4. Мирсанов.Ғ. Инглиз ва ўзбек тилларида юриш ҳаракат феълларининг акционал ва акцентуал хусусиятлари: Филол. фан. Номз. ...диссер. автореф. – Тошкент, 2009.
5. Филимонова Н.В. Фраземы, номинирующие человекам по чертам характера, в русском и немецком языках: структурный и семантический: дисс. ... канд. Филол. Наук. – Челябинск. 2011.
6. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, 2006.
7. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент, 2014.

MUNDARIJA

Sirojiddinov Sh. Milliy til – muvaffaqiyatlarimiz asosi	5
TIL NAZARIYASI VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK MASALALARI	
Dadaboyev H. Janos Ekmann – eski o‘zbek (chig‘atoy) adabiy tilining atoqli tadqiqotchisi	7
Gülensoy T. Köktürkler’in Büyük Veziri “Tonyukuk Boyla Baga Tarkan”ın Adı Üzerine Yazılanlar ve Yeni Bir Görüş	9
Абдушукуров Б. «Қисаси Рабғузий» асарида қўлланган ўзлашмаларнинг полисемантик хусусиятлари	15
Gümüş M. Türk Kültüründe Erdem Kavramı	22
Xolmanova Z. Modellashirish – grammatikani o‘zlashtirish metodi sifatida	29
Жўрабоева М. Тилшуносликка доир тадқиқотлар мазмунини янгилаш	32
Наралиева Ш. Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида она тили машғулотларини самарали ташкил этиш	34
Jumashov D. O‘zbek tilida ko‘makchilar semantikasi	40
Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqida leksik presuppozitsiyaning voqelanishi	45
Abduraxmonova M. Turkiy tillarda semantik derivatsiya asosidagi omonimlar	50
Egamova Sh. Farida Afro‘z she‘riyatining til xususiyatlari	53
Abdujabbarova F. Tog‘ay Murod asarlari tilida qo‘llanilgan metaforalar semantikasi	57
Bozorova S., Bozorova I. Ba’zi terminlarning gazeta tilidagi o‘rni	60
Дустмаматова Н. Градуонимия в исследованиях узбекских лингвистов	64
Komilova G. Aksiologvistik tadqiqotlarda shkalalardan foydalanish	69
Baxodirova Sh. Abdulla Qodiriy asarlarining lingvistik aspektdagi tadqiqi	72
Ziyotova S. “Mehrobdan chayon” asarida qo‘llanilgan umumturkiy zoonimlar xususida	78
Tashmatova N. Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida maqollardan foydalanish mahorati	82
Norova Sh. Asqad Muxtorning “Chinor” romanida makon va zamon birligi tamoyili	85
Qahharova S. “Yurmoq” semali fe’llar tadqiqi	88
Djumashev A. Yangicha qurilish terminlari va ular muqobillarini qo‘llashning dolzarb muammolari	91
Jumaniyozova N. O‘zbek yuridik diskursida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi morfologik vositalar	94
Худайкулова Ш. Аксиология ва ҳозирги лингвистик тадқиқотларнинг ўзаро боғлиқ жиҳатлари	100
Xudayberdiyeva O. O‘zbek tilshunosligida gender tadqiqotlar mazmuni	103
Мардонова Р. Тилда эпитет ва сифатлаш	108